



“Boburnoma” asarida keltirilgan ayrim toponimlar etimologiyasi

Doniyorova Rahima Azim qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti
rahimaazimova7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida qo‘llangan ayrim quruqlik ifodalovchi toponimlarning etimologiyasiga to‘xtab o‘tilgan bo‘lib, kelib chiqishiga oid ma‘lumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirib chiqilgan, shu asosida umumiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, toponim, memuar, etimologiya, Axsikat, Kesh, Konigil, Qarshi, Lamg‘on.

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asari o‘zining tarixiy, ilmiy, estetik va tilshunoslikka oid ahamiyatli ma‘lumotlari bilan Sharq adabiyotining eng muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu asar faqatgina badiiy-memuar manba sifatidagina emas, balki tilshunoslik tadqiqotlari uchun boy va sermazmun manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda XV–XVI asr Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy holati, aholisi, urf-odatlarini hamda joy nomlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar keng yoritilgan. “Boburnoma”da bir qator toponimik birliklar — joy nomlari keltirilgan bo‘lib, bugungi tilshunoslikda tarixiy-geografik, madaniy, leksikologik va nomshunoslikka oid tahlillar uchun katta qiymatga ega. Ushbu toponimlar orqali biz XVI asrdagi joy nomlarining fonetik shakli, semantik mazmunini ko‘rib chiqish va ularning zamonaviy ko‘rinishlari bilan o‘zaro solishtirish imkoniga ega bo‘lamiz.

Har bir hudud ma‘lum bir sababga asoslanib nomlanadi, xususan, geografik jihatdan joylashuvi, iqlimi, unda yashovchi qabila yoki urug‘ nomi, unda sodir bo‘lgan biror-bir voqe-hodisa, aholisining shug‘ullanuvchi kasb-korining oti va shunga o‘xshash boshqa sabablar hududning nomlanishida asos vazifasini o‘taydi. “Boburnoma” asarida keltirilgan toponimlar ham o‘ziga xos kelib chiqish tarixiga ega bo‘lib, asarda ayrimlarining etimologiyasiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Dastlab etimologiya tushunchasiga ta‘rif beradigan bo‘lsak, u tilshunoslikning bir bo‘limi hisoblanib, so‘z va morfemalarning kelib chiqish tarixini o‘rganadi. Demak, Bobur o‘z asarida ayrim toponimlarning nomlanish sabablariga ham izoh bergan. Xususan,



“Boburnoma”da keltirilgan Axsi//Axsikat oykonimining etimologiyasiga yuzlanadigan bo‘lsak, “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”da ushbu joy nomining kelib chiqishi haqida turli nazariyalar keltirilgan. Usmonli turk va arab tillarida “axs” so‘zi omonim so‘z bo‘lib, uning “savdo”, “oldi-berdi”, “qo‘rg‘on yoki qal‘a” kabi ma‘nolari mavjud¹. “Boburnoma”da esa ushbu hududga quyidagicha ta‘rif berilgan:

“Sayxun suyining shimoli tarafidag‘i qasabalar: biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat bitarlar. Nechunkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg‘onada Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur. Andijondin g‘arb sori to‘qqiz yig‘och yo‘ldir. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayxun daryosi qo‘rg‘onning ostidan oqar...”². Ta‘rifdan anglashiladiki, “axs” so‘zining “qo‘rg‘on” ma‘nosi toponimning kelib chiqishiga asos sifatida xizmat qilgan, “kat” so‘zi esa “shahar” ma‘nosini ifodalaydi. Axsi/Axsikat oykonimi “qo‘rg‘onli shahar” demakdir.

Xususan, “Boburnoma”da yana boshqa bir qator joy nomlarining etimologiyasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Qarshi, Shahrisabz, Konigil, Konibodom, Lang‘on, Kashmir, Farg‘ona kabi toponimlar shular jumlasidandir. Qarshi nomining kelib chiqishiga to‘xtalgan Bobur bu joy haqida shunday yozadi:

“Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. G‘olibo bu ot Chingizxon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondur”³. Ushbu ta‘rif orqali “qarshi” mo‘g‘ulcha “go‘rxona” so‘zidan kelib chiqqan degan tasavvur uyg‘onadi. Biroq XI asrda Yusuf Xos hojib tomonidan yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asarida esa “qarshi” atamasi saroy, o‘rda so‘zlari bilan ma‘nodosh holatda juft so‘z shaklida keltirilgan, bundan tashqari beklarning yashaydigan qarorgohiga nisbatan ham “qarshi” atamasini qo‘llagan. Yana bir manba, ya‘ni “o‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”da esa “qarshi” so‘zi haqida quyidagicha ta‘rif uchraydi:

“XIV asr tarixnavisi Hofizi Abru “Turkiy tilda podshohning qasrini qarshi deydilar”, deb yozib qoldirgan...XVII asr tarixchisi Mahmud ibn Vali ham qarshi so‘zining ko‘shk ma‘nosini qayd etib, uni mo‘g‘ulcha so‘z deb zikr etgan.”⁴.

¹ O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022, 38-bet.

² Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 62-бет.

³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 108-бет.

⁴ O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022, 340-bet.



Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda Qarshi oykonimi aslida "ko'shk", "saroy" so'zlaridan kelib chiqqan degan xulosaga kelish mumkin. "Boburnoma"da Keshga ta'rif berayotganda "Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar" degan ta'rif keltirilgan. Ya'ni Keshning dastlab norasmiy, xalqona nomi sifatida shakllanib, hamma yoq yashil rangga burkanganligi uchun Shahrisabz, "yashil shahar" deb atalgan. Konigil toponimining kelib chiqishi haqida esa Bobur: "Ba'zi derlarkim, bu o'langning asli oti Koni obgir ekandur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar. Xili yaxshi o'langdur. Samarqandning salotini hamisha bu o'langni qo'ruq qilurlar"⁵, deya yozadi. Shu o'rinda "obgir" atamasining Bobur asarlarida "botqoq" ma'nosida qo'llanilganligini unutmazlik lozim. Boshqa manbalarga yuzlanadigan bo'lsak, tilshunos olim S. Qorayev Konigil oykonimi xususida o'z fikrlarini quyidagicha solishtirma tazrda bayon etgan:

"Ba'zi birovlar uni Koni gil, ya'ni "tuproq koni" desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro'zbexon "Mehmonomai Buxoro" asarida Koni gul, ya'ni "gular koni" deydi"⁶.

Bundan tashqari, "Boburnoma"da Lamg'on va G'urband toponimlari etimologiyasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Lamg'on nomining kelib chiqishi xususida quyidagicha ta'rif keltiradi:

"Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixda Mehtar Lomni Lamak, Lamkon debdurlar. Ul elni xil mulohaza qilibturki, ba'zi mahal "kof" o'rniga "g'ayn" talaffuz qilurlar, bu jihatdan g'oliban bu viloyatni Lamg'on debdurlar"⁷. Ushbu parcha orqali Lamg'on nomi Lamak, Lamkon nomlarining fonetik jihatdan o'zgargan shakli ekanligi anglashiladi. G'urband nomiga ham alohida ta'rif keltirilib, uning kamhosil yer ekanligi haqida ma'lumot berib o'tgan:

"Yana bir G'urband tumanidir. Ul viloyatlarda ko'tallarni "band" derlar. G'o'r sari bu ko'tal bilan borurlar, g'olibo ul jihatdin G'urband debturlar. Sardarralarini Hazoralar shug'l qilibtur, bir necha kentturkim, kamhosilroq yerdur"⁸. Demak, G'urband toponimi g'or tomon eltuvchi dovon, yo'l ma'nosini ifodalaydi. Asarda yana

⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 107-бет.

⁶ Qorayev S. Toponimika (o'quv qo'llanma). — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006, 309-бет.

⁷ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 191-бет.

⁸ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 193-бет.



bir qator toponimlar, ularning kelib chiqishi va yana boshqa ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Samarqand viloyati hududidagi Urgut va Toyloq tumanlariga to'g'ri keluvchi, o'sha vaqtdagi Shovdor tumaniga, uning joylashuviga "Boburnoma" da quyidagicha ta'rif keltirilgan:

"Yana Shovdor tumanidir. Shahr va mahallotqa payvastur. Xili yaxshi tumandur. Bir tarafi Samarqand bila Shahrisabz orasidagi tog' voqi' bo'lubtur, kentlari aksar bu tog'ning domanasida tushubtur. Yana bir tarafi Ko'hak daryosidir, xushhavo va pursafo, suyi farovon, ne'mati arzon, xili yaxshi tuman tushubtur"⁹. Ushbu hududning bir tarafi Samarqand va Shahrisabzni bog'lab turuvchi tog' bo'lib, yana bir tarafida Ko'hak daryosi bo'lgan. Ushbu ta'rif yuzasidan Shovdor tumanining bugungi kundagi taxminiy joylashuvi yuzasidan yana bir taxmin mavjud bo'lib, quyida ularni o'zaro solishtirib chiqamiz. Shovdor tumanining "Boburnoma" dagi ta'rif asosida uni bugungi kunda Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan Yakkabog' va Shahrisabz tumanlarining tog'li hududlarini o'z ichiga oluvchi tuman sifatida aytish ham mumkin, Ko'hak daryosi esa Qashqadaryoning ma'lum bir irmog'i yoki Yakkabog' soy bo'lishi mumkin, degan taxminlar ham mavjud. Ammo ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, Shovdor Toyloqning o'rta asrlardagi nomi bo'lgan, ushbu ma'lumot asosida Toyloq va Urgut tumanlarining o'zaro chegaradoshligiga asoslanib, Toyloq tumanining sharqiy qismi va Urgut tumanining Samarqand va Shahrisabzni bog'lovchi Zarafshon tog' tizmasi bilan tutashgan janubiy qismi XV-XVI asrlarda Shovdor deb ataluvchi yaxlit tuman bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Bu fikrning isboti o'laroq, "shahr va mahallotga payvastur" ta'rifini, bunda Shovdorning Samarqandga yaqin va shahar bilan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi bog'langan degan mazmun borligini ko'rsatish mumkin. Ta'rifda keltirilgan Ko'hak daryosi esa mazkur hududlardan oqib o'tuvchi Urgutsoy yoki Zarafshon daryosiga parallel tarzda oquvchi unga yaqin bo'lgan biror bir soy bo'lishi mumkin.

Bobur O'zbekistondagi yana bir qadimiy shahar Buxoro xususida ham alohida to'xtalib o'tgan va uning qovunini alohida ta'riflab, Movarounnahrda bu kabi boshqa qovun yo'q deya e'tirof etgan:

"Ulug' viloyatikim, Samarqand qarinasidir, Buxorodur, Samarqandning g'arbi tarafi yigirma besh yig'och yo'ldur, Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr

⁹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 108-бет.





shahre voqi' bo'lubtur. Mevasi ko'p bo'lur va xo'b bo'lur, qovuni bisyor yaxshi bo'lur, Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko'p va xo'b qovun bo'lmas..."¹⁰. Buxoroga berilgan ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, Bobur nafaqat oykonimlarning joylashuvi va etimologiyasiga to'xtalgan, balki ularning tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini ham sanab o'tgan.

"Boburnoma" tarkibi faqat Markaziy Osiyo hududlariga oid ma'lumotlar bilan boyitilibgina qolmasdan, unda hozirgi Afg'oniston, Pokiston, Hindiston hududlarida joylashgan XVI asrda mavjud bo'lgan boshqa ko'plab bog'lar, maydonlar, darvozalar, qal'alar va ularga oid qimmatli ma'lumotlar bilan boyitilgan. Xususan, taxminiy hozirgi Hindiston hududiga to'g'ri keladigan Hotiypul toponimi va uning kelib chiqish tarixiga to'xtalgan Bobur shunday yozadi:

"Sharq soyig'i zil'ining burjida Hotiypuldur. Pilni "hotiy" derlar, darvozani "pul". Bu darvozaning chiqishida bir filning suratini mujassam qilibturlar, ustida ikki filbon ham qilibturlar; biaynihi fil, xili mushobih qilibturlar. Bu jihattin "Hotiypul" derlar. To'rt tabaqa imoratkim bor, boridin quyig'i tabaqasining bu mujassam fil sori ravzani bor, andin fil yavuq ko'runadur..."¹¹. Ya'ni ushbu darvoza yoki inshootning chiqish qismida filning surati bor, filni mazkur hudud aholisi "hotiy" deb atashgan, darvozani esa "pul", aynan ushbu darvozaga fil surani solinganligi tufayli uni "Hotiypul" deb atashgan. Parchaga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, darvozada fil va uning ustida ikki filbon mavjudligi haqiga ham so'z boradi. Boburning ushbu ta'rifi uning naqadar nozik did sohibi ekanligini, san'at va me'morchilikka bo'lgan e'tibor qanchalik yuqori ekanligini tasvirlaydi. Bundan tashqari, hind me'morchiligi va uning noyob namunalari haqidagi ma'lumotlarni yozma shaklda hujjatlashtirilgan shakli sanaladi.

"Boburnoma" asari yaratilganidan buyon taxminan 500 yildan ziyod vaqt o'tgan bo'lib, asarda qo'llangan joy nomlarining ba'zilar qisman yoki to'liq o'zgargan, o'z holatini to'liq saqlab qolganlari ham yo'q emas, albatta. Tarixiy toponimlarning bunday o'zgarishi tabiiy jarayon bo'lib, u mintaqadagi geosiyosiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida shakllanib kelgan. Toponimlar tarkibidagi qisman o'zgarishlar, asosan, ularning lug'aviy tarkibida ko'zga tashlanadi. Ba'zi hollarda esa joy nomlari to'liq yangilanib, mutlaqo boshqa nomlar bilan yuritila boshlagan. Shu

¹⁰ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 107-бет.

¹¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960, 413-бет.



bilan birga, hozirgi kunda mutlaqo boshqa nom bilan ataladigan joylar ham mavjud. Masalan, Yangi (Taroz) hozirda Talas nomi bilan, Darbandi Ohanin hozirda Temir Darvoza nomi bilan, Shovdor esa Toyloq nomi bilan ma'lumdir. Bunday nom almashinuvi ayrim hollarda tarixiy voqealar, siyosiy tuzumlar almashinuvi yoki xalq og'zaki ijodi va til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, ayrim joy nomlari esa geografik xaritalarda eskicha shaklda saqlanib qolgan yoki zamonaviy talaffuz va yozuv qoidalariga moslashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur. Boburnoma. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
3. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
4. www.ziyouz.com sayti manbalari.

Research Science and
Innovation House

